

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUSTA`LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
XITOIY FILOLOGIYASI KAFEDRASI

KURS ISHI

Mavzu: “Xitoy tilida ot so`z turkumi haqida
ma`lumot”

Bajardi:3-kurs xitoy-inglizguruh

talabasiValiyevaMahliyo

Ilmiyrahbar:F.f.n.kat.o`qituvchi

XoshimovaSabohat

TOSHKENT 2011

Reja:

Kirish.....	2
I bob Ot soʻz turkumi haqida umumiy tushuncha.....	4
II bob Ot yasashida suffikslarning oʻrni.....	11
1-§ 子 zi – sufiksi.....	11
2-§ 头 tou – sufiksi.....	12
3-§ 家 jia – sufiksi.....	13
4-§ 者 zhe – sufiksi.....	14
Xulosa.....	15
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	17

I.Kirish

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda ta'lim sohasi eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bunga yaqqol dalil sifatida ta'lim sohasida olib borilgan ko'pgina islohotlarni misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin. Masalan, 1997-yil 29-avgust kuni Oliy Majlisning IX – sessiyasida “ Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi” ning qabul qilinganligini, ”Ta'lim to'g'risidagi” qonunlarning ishlab chiqilganligini ko'rsatishimiz mumkin

Ta'lim olishning yangi milliy modelida o'quvchi, talabalarga yangicha usulda dars berish, ularni izlanishga, mustaqil bilim olishga o'rgatish, keng dunyoqarashga ega kadrlar tayyorlash maqsad qilib qo'yilgan. Bu islohotlarning barchasi biz talabalarga yanada ko'proq e'tibor berilishi va ilmiy tadqiqot ishlarida ham yordam ko'rsatilishlikni talab etadi.

Respublikamiz taraqqiyoti kun sayin yuqori pog'onalariga ko'tarilib, o'z madaniyati, tili, urf-odatlari biz yoshlarning ilmga bo'lgan salohiyati bilan dunyo sathlarida samarali foydalangan holda dunyo mamlakatlarini o'rganish, ularning dini, urf-odatlari, madaniyati, tilini bilish zarurdir. Respublikamiz va Xitoy aloqalarining bugungi kunga kelib tobora rivojlanib borishi Xitoyning rasmiy tili bo'lgan xitoy tilini o'rganishga chuqur zaruriyat keltirib chiqarmoqda.

Xitoy tili dunyo tillari qatoridan o'rin olgan va borgan sari o'z nufuzini mustahkamlab borayotgan tillardan biri hisoblanadi. Xitoy tili grammatikasi ko'p qirrali va juda keng masalalarni o'z ichiga olgani sababli, o'z ilmiy rahbarim bilan birga kelishgan holda ushbu kurs ishini “Xitoy tilida ot so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot” mavzusi ostida ilmiy- tadqiqot ishini olib bordik..

“Xitoy tilida ot so'z turkumi” mavzusi xitoy tilshunosligi grammatikasida muhim o'rin tutadi. Bu mavzu otning turlari, otlarning tarkibiy qismi, gapdagi o'rnini, qo'llanilish darajasi, otlarning yaalishi, ot sufikslari haqida tanishtirib o'tadi. Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasida hususan otning yasashida sufikslarning turlari juda ko'p. Ularning qo'llanilishining o'z o'rnini bor. Ularning ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lsada, ular baribir tubdan farq qiladi. V.I.Gorelov o'zining “Xitoy tilining grammatikasi” kitobida ham modal fe'llar haqida ma'lumot beradi. Kurs ishini yozishning asosiy vazifalari xitoy

tilida ot soʻz turkumi haqida umumiy maʼlumot berish, ularni tahlil etish, ularning yasaliishi, grammatik funksiyalarini, xususiyatlari haqida toʻliqroq maʼlumot berishdan iboratdir. Ushbu kurs ishi xitoy tilida ot soʻz turkumi haqida atroflicha maʼlumot olish uchun qoʻllanma boʻla oladi deb oʻylayman. Ushbu kurs ishdan turli grammatikaga doir darsliklarni yaratishda va dars jarayonida foydalanish mumkin. Kurs ishini yozish jarayonida xitoy tilidagi bir qancha adabiyotlardan foydalangan holda yozildi. Eng asosiy adabiyot sifatida V.I. Gorelovning “Xitoy tilining grammatikasi” hamda T.P. Zadoenko. “Xitoy tili boshlangich kursi” foydalanildi. Ushbu kurs ishini yozishdan koʻzlangan maqsad hozirgi zamon xitoy tilida ot soʻz turkumi haqida umumiy maʼlumot berish, otlarning yasaliishida sufikslarning oʻrni, ularning turlari, qoʻllanilish oʻrinlari, funksiyalarini yoritishdan iborat. Kurs ishimiz 2 bobdan iborat boʻlib, 1-bob Ot soʻz turkumi haqida umumiy tushuncha deb nomlanadi. 2-bob Otlarning sufikslari, ushbu bobga quyidagilar kiradi: 1-§ 子 zi – sufiksi, 2-§ 头 tou – sufiksi, 3-§ 家 jia – sufiksi, 4-§ 者 zhe – sufiksi. Bundan tashqari xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyhatidan iboratdir.

I bob.Xitoy tilida Ot soʻz turkumi haqida umumiy maʼlumot.

Taʼrif. Xitoy tilida ot- (名词 – ming ci)deb ataladi.Ot – bu soʻz turkumi boʻlib shaxs yoki predmetning gramatik maʼnosini anglatadi.Predmetning gramatik maʼnosi – bu barcha otlarga, u yoki bu qanday xususiy va muayyan leksik maʼnoga ega ekanligidan qatʼiy nazar,xos boʻlgan umumiy belgi¹.

Otlarda predmetning umumiy gramatik maʼnosi mavjudligi barcha otlar grammatik xossalari va hulq-atvor xususiyatlarining umumiylikini belgilaydi.Predmetning umumiy maʼnosini bildiruvchi otlar taxminan bir hil morfologik belgilarga ega boʻladi,yaʼni taxminan bir xil shakilda , soʻz yasalish xususiyatiga , shuningdek oʻxshash sintaksik xossalarga ega,gapda oʻxshash holda keladi¹.

Otning maqsadi va vazifalari Ot odatda ega va toʻldiruvchi vazifasida keladi.

U shuningdek sodda yoki murakkab tuzilgan kesim, aniqlovchi va qoʻshimcha vazifasida kelishi mumkin. Otning yana bir vazifasi holatni bildiruvchi soʻzlar yoki hol tuzilishiga kirib ketishi mumkin.

Ot – narsaning belgisini bildirib aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin.

Ularni quyidagi misollarda koʻrishimiz mumkin:

Otlarning tarkibiy xususiyatlari otlar oʻz tarkibiga koʻra quydagi guruhlariga boʻlinadi:

1. Bir boʻgʻinli otlar: 人 – ren – inson, 书 – shu – kitob, 山 – shan – togʻ, 茶 – cha – choy, 马 – ma – ot va h.k.
2. Koʻp boʻgʻinli otlar: 房子 – fang zi – xona, 衣服 – yi fu – kiyim, 父母 – fu mu – ota ona, 社会 – she hui – jamiyat va.h.k.

¹ V.M. Solsev “Ocherki po sovremennomu kitayskomu yazika” – Moskva, 1957.

¹ A.A.Durganov.Issledovaniya po gramatike sovremennogo kitayskogo yazika. – M,1952

Bir boʻgʻinli otlar koʻp boʻgʻinli otlarga qaraganda kamroq, lekin ular tilda juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki negizi oʻzak soʻzlarga kiradi. Tilda qadim zamonlardan beri mavjud boʻlgan koʻpgina bir boʻgʻinli otlar muhom tushinchalarni bildiradi (masalan, 人 – ren – inson, 山 – shan – togʻ va h.k) va

tilda yangi soʻzlar yasash uchun asos boʻlib hizmat qiladi. Bir boʻgʻinli otlar – koʻp boʻgʻinli otlarni yasash uchun muhim material.

Hozirgi zamon xitoy tilida aksariyat otlar koʻp boʻgʻinli soʻzlar hisoblanadi.

Ularning koʻpchiligi qadim zamonlardan beri mavjud va asosiy lugʻat fondiga kiradi, masalan, 人命 – ren ming – xalq, 社会 – she hui – jamiyat, 国家 – guo jia – davlat va h.k¹ .

Ot sinflari.Xitoy tilida ot – atoqli otlar va turdosh otlar sinfiga boʻlinadi.

Atoqli otlar- alohida shaxs yoki buyumlarning nomlarini bildirib keladi:

Masalan:

司马迁 -Sima Qian-sima Jian

黄河- Huanghe -Xuanxe

北京 -Beijing- Pekin,

鲁迅- Lu Xun- Lu Sin,

四川-Sichuan-Sichuan,

洞庭湖- Dongtinghu-Duntinhu,

金星-Jinxing-Venera,

水浒传-Shuihuzhuan- “Shuihuchjuan”

,红楼梦-“Hongloumen

Turdosh otlar-bir xil turdagi buyumlarning umumiy nomidir:

Masalan:

父亲-fuqin- ota,

医生 –yisheng-vrach

哲学家- zhexuejia- faylasuf

,桌子- zhuozi- stol

铅笔-qianbi-qalam

风-feng-shamol

,雪-xue-qor

山-shan-togʻ

河-he-daryo

苹果-pingguo-olma

紫丁香-zidingxiang-siren,

可能性-kenengxing-imkoniyat,

胜利- shengli-g`alaba.

Xitoy tilida turdosh otlar bir nechta sinflarga bo`linadi. Otlarning sinflarga bo`linishi ularning ko`rinishiga va belgilariga qarab ajratiladi. Bunday grammatik bo`linish maxsus hizmat so`zlari orqali bajarilib u **klassifikator** deb ataladi¹.

Ot o`lchov birliklari alohida guruhlar bo`limini tashkil etadi. Bu bo`limga ikki turdagi so`zlar kiradi:

a) uzunliklar nomi, masalan: 里(uzunlik birligi)

b) o`lchov birligida ishlatiladigan narsalar nomi, masalan: 碗 wan- chashka.

O`lchov birligida ishlatiladigan otlarning asosiy va alohida belgisi shundan iboratki u kamdan kam holatda klassifikatorlar bilan birga qo`llaniladi.

O`lchov birliklari va klassifikatorlar bilan ishlatiladigan otni quydagi alohida belgilarini e`tiborga olish shartdir:

1. Bir hil ko`rinishdagi ot birinchi ko`rinishida ma`lum narsani bildirsa , ikkinchi ko`rinishda o`lchov birligini bildirishi mumkin. Klassifikatorlarni qo`llash otning u yoki bu maqsadini bildiradi
一个茶碗 - yi ge chawan - bitta choy piolasi,

¹ J.Mullie.The Structural Principles of the Chinese Language.Peiping,1972.

一碗茶 - yi wan cha - choy uchun bitta piola.

Birinchi misolda ot narsani bildirib unda klassifikator qo`llanilgan, ikkinchi misolda esa ot o`lchov birligini bildirib bu yerda klassifikator qo`llanilmagan.

2. Ikkita so`z xatda bitta ieroglif bilan ishlatilsa bitta turkum so`z deb olinib, o`lchov birligini bildirishi, boshqasi hizmat so`zini bildirib, klassifikator vazifasini bajarishi mumkin:

三张纸- san zhang zhi- uch varaq qog'oz,

三张桌子- san zhang zhuozi- uchta stol.

Birinchi misoldagi 张 ot o'lchov birligini bildiradi. Turkum so'z bo'lib u rus tiliga ot bo'lib tarjima qilinadi. Ikkinchi misoldagi 张 klassifikator bo'lib narsani sinfini bildiradi. U xizmat so'z bo'lib rus tiliga tarjima qilinmaydi.

3. Ot o'lchov birligi bo'lib turkum so'z bo'lsa aniqlovchi vazifasini olishi mumkin. Klassifikator xizmat so'zi bo'lib bunday imkoniyatga ega emas. Uchta katta qog'oz. Uchta katta stol.

Otning sanoq so'zlarisiz qo'llanilishi

Xitoy tilidagi otlarda shunday otlar borki, unda son hisob so'zlarisiz qo'llaniladi. Bu otlar asosan o'lchov nomlaridir. (masalan, o'lchob birliklari vaqt, og'irlik miqdori)

1. 一天 – yi tian – bir kun
第一天 – di yi tian – birinchi kun
两天 – liang tian – ikki kun
第二天 – di er tian – ikkinchi kun
2. 一课 – yi ke – bitta dars
第一课 – di yi ke – birinchi dars
两课 – liang ke – ikkita dars
第二课 – di er ke – ikkinchi dars

Ba'zi otlar son bilan ikki martalab, juft so'z bilan va juft so'zsiz kelishi mumkin, shuningdek bunda turli hil ma'nolarni bildirish mumkin. Masalan: otda 年级 nianji "kurs", "sinf" (o'quv yili); son hisob so'zsiz tartib ma'nosini bildirib, sanoq so'z bilan miqdorini bildiradi.

1. 一个年级 – yige nianji – bir kurs
一年级 – yi nianji – birinchi kurs
2. 两个年级 – liangge nianji – ikki kurs
二年级 – er nianji – ikkinchi kurs

¹ В.И.Горелов “Лексикология китайского языка”, Москва, 1984 г., стр11.

E'tibor qiling bu otlarda son old qo`shimchasiz qo`llanilib, uning tartibiga son so`zlarining yo`qligi ko`rsatiladi. Ko`pgina otlar – o`lchov birliklari boshqa otlarda hisob so`z sifatida ishlatiladi. Taqqoslab ko`raylik:

1.一斤 – yi jin – bitta zjin

一斤肉 – yi jin rou – bir zjin go`sht

2.一行 – yi hang – bitta satr

一行字 – yi hang zi – bir satr ieroglif

Xitoy tilida otning turlanmaslik holati. Xitoy tilida ot rodlarga ajratilmaydi, soni kelishigi o'zgarmaydi. Bir vaqtning o'zida 1 ta predmetni bu turdagi predmetlarni shu bilan birga bir jinsdagi narsalarni ajratishi mumkin. Shuning uchun Xitoy tilida otlarning turlanishi uchramaydi.

Xitoy tilda ot grammatik jinslarga ajratilmaydi. Ayrim hollardagina leksik jihatdan ajratilishi mumkin. Bu faqat ba'zi bir otlargagina tegishli bo'lib bular jonli predmetlarga oiddir.

Rus tilidagi “erkak jinsi” va “ayol jinsi”ga oid bo`lgan so`zlar hayvon va o`simliklarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Xitoy tilidagi 男 - nan va 女 - nu so`zlari faqatgina odamlarga nisbatan ishlatiladi, hayvonlarga nisbatan esa 公 - gong , 母 - mu iyerogliflari qo`llaniladi, o`simliklarga nisbatan 雌 – ci , 雄 – xiong iyerogliflari qo`llaniladi.

Masalan:

男教员 – nanjiaoyuan - erkak o'qituvchi,

女教员 – nujiaoyuan – ayol o'qituvchi,

公鸡 – gongji - xo'roz,

母鸡 – muji – tovuq,

雌花- cihua – ayol gul,

雄花 – xionghua – erkak gul.

Mening uyimda ikkita it bor: o`g`il bola va qiz bola.

1. 我家有两只狗。一只是男的，一只是女的。

Wo jia you liang zhi shi gou. Yi zhi nan de,yi zhi shi nu de.

✓ 2. 我家有两只狗。一只是公的，一只是母的。

Wo jia you liang zhi gou. Yi zhi shi gong de, yi zhi shi mu de.

Biz otning qo`llanilishida jinslarga albatta etibor berishimiz lozim ekan,yuqorida ko`rsatilgan gapimiz aynan otning qo`llanilishida jinslarni to`g`ri tanlay bilish uchun yahshi misol bo`la oladi.

Xitoy tilida ot birlik va ko`plikda neytral holatda. U bitta narsani bildirishi mumkin va shu qatorda bir hil narsalarni ham bildiradi. Har qanday hollarda otlar miqdori kontekst bilan aniqlanadi.

Xitoy tilida yagona morfologik ko`rsatuvchi ot bu 们 - suffiksidir. Lekin uning qo`llanilishi ham chegaralangan. 们 suffiksi ko`plikdagi barcha shaxsni ifodalovchi otlarni ko`plikdagi shakllarni ifodalash uchun ishlatiladi.

同志们 – tongzhimen – o`rtoqlar

学生们 – xueshengmen - talabalar

老师们 – laoshi men – o`qituvchilar

Ba`zida 们 suffiksi hayvon va qushlarni nomlarini ko`plikda ifodalashqa qo`llaniladi.

骆驼们 – luotuomen – tuyalar,

狗们 – goumen – kuchuklar.

Istisno tarzida ayrim hollardagina jonsiz predmetlarni ko`plikda ifodalash uchun 们 suffiksidan foydalanish mumkin.

们 qo'shimcha haqida yana ikki hususiyat mavjud, ular:

- ot son bilan birga ishlatilganda u suffiks bilan oformlenie qilinmaydi:
两个工人 – liang ge gongren – ikki ishchi,
三个农民 – san ge nongmin – uchta qishloq odami.
- ikkita yoki undan ortiq miqdorda ot bitta gapda 们 suffiksi bilan kelsa va ko'plik ma'nosini bildirsa faqat oxirgi ot oformlenie qilinadi:
指挥员和战斗员们 – zhihuiyuan he zhandouyuanmen – boshliqlar
va jangchilar
代表、观察员和记者们 – daibiao, guanchayuan he jizhemen – delegatlar, nazoratchilar hamda koresspondentlar.

Ayrim otlarning ikkilanishi natijasida “har bir” degan ma'noni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan:

家家 – jia jia – har bir oila

年年 – nian nian – har yili

Ravish otlar. Xitoy tilida shunday otlar guruhi borki ular ravish bilan birikadi.:

今天 - jintian – bugun,

明天 - mingtian – ertaga,

早上 - zaoshang – ertalab,

晚上 – wanshang – kechqurun .

Ravish otlar ravishdan farqi shundaki ular gapda ega vazifasini bajarishlari mumkin. Uning bu hususiyati uni ot bilan yaqinlashtiradi.

Ravish otlar klassifikatorlar bilan qo'llanilmaydi. Ular ko'pincha hol vazifasini bajaradi. Bu holatda esa ularni ravish bilan yaqinlashtiradi.

II bob. Ot yasashida suffikslarning o'rni

Suffiks. So'z o'zagiga suffiks qo'shilishi orqali yasaladi. Suffiks (后缀词 尾 – houzhui ciwei) deb ataladi, mustaqil bo'lmagan affiksial morfemaga aytiladi

va u o`zak morfemaning oxirida kelib so`z yasallshining eng mahsuldor elementi hisoblanadi. Suffikslar yordamida ko`plab ot va fe`llar, shuningdek ba`zi bir ravishlar yasaladi. Suffikslar yordamida hosil bo`lgan quyidagi otlarni misol tariqasida ko`rib chiqishimiz mumkin.

1-§ 子 zi – suffiksi

Mazkur suffiks so`z yasovchi maxsuldor suffikslardan bo`lib asosan ot turkumiga oid so`zlarni hosil qiladi. Ushbu suffiks

Xitoy tilida juda keng tarqalgan suffikslardan hisoblanadi. 子 zi suffiksi yordamida yasalgan so`zlar turli semantik kategoriyalarga mansub bo`lib, inson, hayvon, qush, inson tanasi a`zolari, uy – ro`zg`or buyumlarini belgilab beradi.

Predmet nomini bildiruvchi so`z + “子”= ot
--

- 1.房子 - fangzi – uy,
- 2.桌子 – zhuo zi – stol,
- 3.算子- bizi- qafas.
- 4.车子 – che zi – mashina
- 5.树 林 子 – shilin zi – o`rmon
- 6.瓜 子 – gua zi – tarvuz urug`i
- 7.馆 子 – guan zi – restoran
- 8.靴 子 – xue zi – etik(oyoq kiym)
- 9.裤 子 – ku zi – shim
- 10.裙 子 – qun zi - yubka

2-§ 头 tou – suffiksi

头 tou Affiksall morfema bo`lib, turli semantik qatorlarga mansub otlarni yasaydi. Mazkur affiksall morfemaning etimologik korreliyatil 头 tou – bosh, kalla mustaqil morfemasidir, bu mustaqil morfema zamonaviy xitoytilida bir bo`g`inli so`z maqomiga ega. Shuni ta`kidlash lozimki, tou

formatini qo'llash yasovchi ildizlarning nisbatan tor qatori bilan chegaralangan. Mazkur suffiks ishtirokida mavhum hamda aniq ma'noga bo'lgan so'zlar hosil bo'ladi.

Burchagi yo'q narsalarni dumaloq, silindr, oval shakl bildiruvchi so'zlar misolida:

1. 枕头 - zhentou - yostiq,
2. 石头 - shitou - tosh,
3. 指头 - zhi tou - barmoq
4. 口 头 - kou tou - og'iz
5. 光 头 - guang tou - ka
6. 肩 头 - jiantou - yelka
7. 木 头 - mutou - daraxt

Mavhum ma'nonibildiruvchi so'zlar misolida:

8. 念 头 - niantou - hayol,
9. 苦 头 - kutou - qiyinchilik.
10. 关 头 - guan tou - hal qiluvchi daqiqa

3-§ 家 jia – suffiksi

家 jia Bu suffiks yordamida shaxsni bildiruvchi otlar hosil qilinib, ko'proq u yoki bu ish bilan band bo'lgan, biron hunarni egallashni ifodalab keladi. O'zining asl ma'nosi oila, to'liq leksik ma'nosini yo'qotadi, timologik to'nini saqlab qoladi.

1. 文学 – wenxue – adabiyot – adabiyotshunoslik
文学家 – wenxuejia - adabiyotchi – adabiyotshunos
2. 汉学 – hanxue – xitoyshunoslik –
汉学家 – hanxuejia – xiyoychi – xiyoyshunos
3. 历史 – lishi - tarix
历史学 – lishixue – tarix (ilm)
历史学家 – lishixuejia – tarixchi
4. 语言 – yuyan – til(ling)

语言学 – yuyanxue – tilshunoslik – tilbilishlik

语言学家 – yuyanxuejia – tilchi – tilshunos

5. 政治家 – zhengzhijia – siyosatchi,

6. 思想家 – sixiangjia – o'ylovchi.

4-§ 者 zhe – sufiksi

者 zhe Ot yasovchi suffiks 家 – jia yordamidan hosil bo'lgan otlardan farqli boshqa so'zlarni ham yasaydi masalan fe'l hamda sifat hosil qilish uchun xizmat qiladi. bu otlar shaxsni bildirib u yoki bu bilan shug'ullanishni bildiradi. Shu bilan birga yana ideologiya yo'nalishi jamoa oqimini aniqlovchi asosiy otlarni ham yasaydi.

1. 读 – du – o'qish

读者 – duzhe – o'quvchi

2. 学 – xue – o'rganish

学者 – xuezhe – olim

3. 记 – ji – yozish

记者 – jizhe – muhbir

4. 作 – zuo – qilmoq

作者 – zuozhe – avtor

5. 老 – lao – eski

老者 – laozhe – qariya

6. 爱好 – aihao – sevmiq

爱好者 – aihazhe – ishqiboz

7. 劳动 – laodong – mehnat qilmoq

劳动者 – laodongzhe – mehnatkashlar

8 工作 – gongzuo – ishlamoq

工作者 – gongzuozhe – ishchi

新闻工作者 – xinwengongzuozhe – muhbir

建筑工作者 – jianzhugongzuozhe – quruvchi

美术工作者 – meishugongzuozhe - rassom

9. 唯物主义者 - weiwuzhuyizhe - materialist

10 唯心主义者 – weixinzhuyizhe - idealist

儿 er narsalarni umumiy maqsadda hosil qiluvchi suffiks
hisoblanadi hamda soʻz yasaydi:

花儿 - huar - gul,

把儿 - bar - ruchka,

画儿 - huar - rasm.

碗儿 – wanr – likopcha

女儿 – nur - qiz

处 chu mavhum otlarni hosil qiluvchi suffiks:

长处 - changchu qadr-qimmat,

短处 - duanchu - kamchilik

员 yuan baʼzi otlar u yoki bu ishlar bilan mashgʻul shaxslarni bildirish
uchun hosil qilinadi:

运动员 – yundongyuan - sportchi,

通信员 – tongxinyuan - correspondent.

性 xing otga qoʻshilganda unga –lik hamda -li harakter hususiyatini
beradi:

革命性 gemingxing- revolyutsionlik,

组织 - zuzhixing - tartiblilik, hamjihatlik.

化 hua otga qoʻshilganda rus tilida keluvchi harakterga mos qoʻshimchalar –
aksiya,-fikatsiya va –siya maʼnolarini beradi:

工业化 – gong ye hua – industrilizatsiya

集体化 – ji ti hua - kollektivizatsiya

主义 zhuyi jamoa-iqtisodiy, jamoa-siyosiy, ilmiy yoʻnalishdagi
nimagadir tobe qoʻshimchasi bilan keluvchi suffiks

资本主义 kapitalizm,

Xulosa

Ushbu kurs ishini ustida izlanish olib boorish jarayonida biz quyidagi xulosalarga keldik Mavzuni yoritish jarayonida ,xitoy tilida ot so`z turkumi haqida umumiy ma`lumot berish,ularning tarkibi, yasalishi, vazifalari va qo`llanish usullari haqida batafsil ma`lumotga ega bo`lish imkoniyati tug`ildi.

Kurs ishi mavzusini yoritishda asosiy maqsad ,xitoy tilida ot so`z turkumi mavzusini faqatgina yoritib berish emas, balki o`zbek tiliga to`g`ri tarjima qilib o`zbek o`quvchilariga yordamchi qo`llanma sifatida foydalanishga erishishdan iborat.

1.Ana shu maqsadga tayangan holda, kurs ishi birinchi bobida ot so`z turkumi haqida to`liqroq ma`lumot berishga harakat qildik. Xitoy tili gramatikasi serqirraligi sababli uni mukammal o`rganish uchun juda katta izlanish talab etiladi.Xitoy tilida ot so`z turkumi haqida umumiy ma`lumot berar ekanmiz, otning gapdagi vazifalari, otning tarkibiy hususiyati,otning atoqli otlar:(司马迁 -Sima Qian-sima Jian, 北京 -Beijing- Pekin, 鲁迅- Lu Xun- Lu Sin),hamda turdosh otlarga (父亲-fuqin- ota,医生 –yisheng-vrach, 哲学家- zhexuejia- faylasuf,桌子- zhuozi-stol,铅笔-qianbi-qalam) larga ajratilishini ko`rib chiqdiq.

2.Xitoy tilida ot so`z turkumining hisob so`zlar bilan birikmasi otga qo`shilib kelishi mumkinligi (三张纸- san zhang zhi- uch varaq qog`oz) unda son hisob so`zlarsiz qo`llaniladi ba`zi shunday otlar borki unda son hisob so`zlarsiz qo`llanilishi (一天 – yi tian – bir kun,第一天 – di yi tian – birinchi kun)

3.们 – men ,ko`plik qo`shimchasi jonli otlarga qo`shilib ko`plik ma`nosini anglatib keladi.( 同志们 – tongzhimen – o`rtoqlar 学生们 xueshengmen- talabalar)

4.Otning qo`llanilishida nimalarga ahamiyat berilishi lozimligi ya'ni, jinsni ifodalashda (erkak va ayolga nisbatan 男 va 女, hayvonlarga nisbatan 公 va 母, o`simliklarga nisbatan esa 雌 va 雄) ishlatilishi.

5.Otlarning yasallishida suffikslarning ishtiroki,xususan 子, 头, 者, 家 va yana bir nechta suffikslarni ko`rib chiqdik, bu suffikslar turli hildagi otlarni yasashda hizmat qilishini bildik,masalan 头 – you ,suffiksi mavhum hamda aniq ma`noga ega bo`lgan otlarni hosil qiladi,(枕头 – zhen tou – yostiq, 念头 - niantou - hayol) .

Kurs ishimizga xulosa yasay ekanmiz, bu izlanish natijasi o`laroq, yuqoridagi fikrlarga keldik. Ushbu kurs ishida keltirilgan mavzu kelajakda xitoy tilini o`rganmohchi bo`lgan talabalar uchun yordamchi qo`llanma sifatida foydalanilsa, kurs ishining maqsadi yoritilgan deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В.И. Горелов. «Грамматика китайского языка». Москва, 1984г.
2. Т.П.Задоев. “Начальный курс китайского языка”. Издательство “Муравей” , Москва, 2004г.
3. В.М.Солцев “очерки по современному китайскому языка”- Москва,1957.
4. J.Mullie.The Structural Principles of the Chinese Language. Peiping,1972.
5. А.А Драгунов. Исследования по грамматике современного китайского языка.-М.,1952
6. 刘月华等著 .“使用汉语语法”. 商务印书馆 , 北京, 2001 年
7. “现代汉语语法”. 北京, 2003 年
8. “现代语语法”. 上海 , 2007 年
9. “汉语新目标”第一, 二 册. 教育科学出版社, 北京, 2004 年
- 10.成明安, 郝文华.“应用汉语语法”. 湖北人民出版, 武汉, 2005 年
- 11.О.Е Годлиб. “Практическая грамматика современного китайского языка”. Москва, 2000г.
12. А.Иванов, Поливанов. “Грамматика современного китайского языка ”. Москва, 1930г.
- 13 А.Л.Семенов. “Лексика китайского языка”. Издательство “Муравей”, Москва, 2005г.

Lug'atlar:

14. “现代汉语词典”. 商务印书馆 , 北京 , 2005 年
- 15 上海外国学院 .“汉俄词典”. 商务印书馆 , 北京, 2008 年

Internet sahifalari:

16. www.baidu.com
17. www.cn.yahoo.com
18. www.ru.wikipedia.org
19. www.yandex.ru
20. www.google.com.cn
21. www.rambler.ru